

BOLALARDA PSIXIK RIVOJLANISHIDA KORREKSIYA VA KOMPENTATSIYA O'RNI

Andijan Davlat Pedagogika Instituti

Maktabgacha ta'lim fakulteti

Oligofrenapedagogika yo'nalishi 101-guruh talabasi

Xabibulayeva Iymona Hasanboy qizi

ANATATSIYA; Ushbu maqolada korreksion pedagogikaning fan sifatida shakllanishi, korreksion pedagogikaning rivojlanib borishi, korreksion pedagogikaning vazifalari, uning mohiyati, korreksion tushuncha, psixik xususiyatlar, korreksion pedagogika fanining maqsadi, korreksion pedagogikaning asosiy sohalari, korreksion o'qitish, kompensatsiya haqida so'z borgan.

KALIT SOZLAR; korreksiya, korreksion pedagogika, kompensatsiya, defektologiya, anomal bola, inklyuziv o'qitish, korreksion tushuncha.

Korreksion va inklyuziv ta'limning o'rni juda muhim hisoblanadi. Anomal bolalarning ta'lim va tarbiya olishi maxsus bilimga ega bo'lgan defektolog o'qituvchilarga topshirilgan va ushbu yo'nalishdagi o'qituvchi kadrlarni yetishtirishga ham kata e'tibor qaratilgan va imkoniyatlar yaratilgan. Jamiyatda har kim o'z o'rniga ega bo'lishi zarur. Inklyuziv hamda korreksion pedagogika ham shu fikrni oqlagan holda sog'ligida nuqsoni bor bolalarning jamiyatda o'z o'rnilarini topishga kata yordam beruvchi ta'lim shakllari sanaladi. Ruhiy yoki jismoniy sog'ligida nuqsoni bor bolalar bilan shug'ullanuvchi o'qitivchilar ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonida iloji boricha nuqsonlarni yo'q qilish yokida bilinmaydigan holga keltirish, ruhiy holatini yaxshilash va kelajakda yaxshi hayot kechirishlariga umid uyg'otish hamda shuning uchun harakat qilishga undash kabi vazifalarni bajaradilar. Korreksiya" tushunchasi (yunoncha "correction"-tuzatish) korreksion pedagogika pedagogik uslub va tadbirlar yordamida anomal bolalarga

ta'lif berish va ularning kamchiliklarini tuzatish, aqliy rivojlantirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Anomol bola qanday bo'ladi? Anomol so'zining manosi? Ruhiy va jismoniy kamchiliklari mavjud bo'lgan bolalar anomal bolalar deb yuritiladi. Anomal so'zi yunoncha anomalous so'zidan olingan bo'lib odatdan tashqari, noraso degan ma'nolarni bildiradi. Karreksion pedagogikaning asosiy maqsadi anomal bolalarning ta'lif olishiga zarur shart-sharoitlarni o'rganib chiqish va ularning kamchiliklarini iloji boricha tuzatish, bartaraf etish yoki sezilmaydigan holga keltirish usullarini tarbiyachilarga va o'qituvchilarga yoritib berishdan iborat. Korreksion pedagogikaning vazifasi anomaliyaning kelib chiqish sabablarini, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarni o'rganib chiqqan holda integratsiyalashgan, inklyuziv yoki differensial ta'lifni tashkil qilish va ularning ta'lif-tarbiyasi bilan shug'ullanish hisoblanadi. Korreksion pedagogikaning fan sifatida vujudga kelishi. Korreksion pedagogika boshqa fanlarga nisbatan yangi fan sanaladi. Bu fan asosan 19-asrning o'rtalarida rivojlnana boshladi. Bu fanning rivojlanishida buyuk psixolog professor L.S.Vigotskiyning hizmatlari katta hisoblanadi. 1925-yil Maskva shahrida Eksperimental defektalogiya instituti tashkil etildi. Bu institutni L.S.Vigotskiy boshqargan. L.S.Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi hususiyatlarni o'rganib chiqqan va nuqsonlarning murakkab tuzilishi haqida ham ta'lifot ishlab chiqqan. U "Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari" kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'lif olib borish kerakligini, korreksiya va kompensatsiya usullarini o'rganib chiqdi va bularni amalga oshirishning usullarini yoritib berdi. L.S.Vigotskiy anomal bolalarning "salbiy", "ijobiy" tomonlarini o'rganib chiqib ta'lif tarbiyani bolaning patensial qobiliyatini inobatga olgan holda tashkil qilish zarurligini uqtirdi. U defektalogiya sohasida kata nazariy meros qoldirgan va shu bilan birga defektalogiya fanining asoschisi hisoblanadi. O'zbekistonda korreksion pedagogikaning rivojlanishi 1967-yildan boshlab keskin o'sib bordi. Sabab shu yili NIzomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining Pedagogika va Psixaligiya fakultetining qoshida oligafrenopedagogika bo'limi yaratildi. Bu bo'limga 1976-yil surdopedagogika bo'limi ham qo'shiladi. Mustaqil

defektalogiya bo'limida 1984-yildan boshlab bir nicha bo'limlarda ta'lif berila boshlanadi.

Korreksion pedagogika — aloxida yordamga muxtoj jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lif-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fandir. Korreksion pedagogika so'zi lotincha tuzatish — bartaraf etish, pedagogika — ta'lif-tarbiya, urganish degan suzlardan olingan. Ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar anomal bolalar deyiladi (yunoncha odatdan tashqari, noraso degan ma'noni bildiruvchi anomalos suzidan olingan). Korreksion pedagogika fanining mavzu bahsi anomal, aloxida yordamga muxtoj bolalardir.

Korreksion pedagogikaning vazifasi — anomaliyalarning kelib chiqish sabablari, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarini urganish, shular, asosida integratsiyalashgan, inklyuziv yoki differensial ta'lifni tashkil etish, ularning ta'lif-tarbiyasi bilan shug'ullanishdir.

Korreksion pedagogika fanining maqsadi

Korreksion pedagogika nisbatan yangi fan. U asosan 19 asrning o'rtalarida rivojlana boshladi. 1925 yilda Moskva shaxrida Eksperimental defektologiya instituti tashkil etildi. Bu institutni buyuk psixolog professor Vigotskiy L. S. boshqardi.

Bola nutqida qo'pol kamchiliklar bo'lsa, to'g'ri tashkil etilgan logopedik choralarmi o'z vaqtida ko'rish yo'li bilan ularni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo bo'lgan bo'lsa (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to'liq bartaraf etib bo'lmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Korreksion pedagogika amaliyotida yana shunday anomaliyalar uchraydiki, ularni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo'lmaydi, masalan, tug'ma ko'rlik yoki karlik shular jumlasidadir. Bunda ko'rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni kompensatsiyalash, o'rnini bosipsh mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta

kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa imo-ishora, ya'ni daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

- Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

- Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari.

Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiyligi qonuniyatlar mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rGANISH tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- 2) differensasiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- 3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- 4) rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- 5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

6) anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish; anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Bolalarning har bir toifasi o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlarga ega, ularni psixologik-pedagogik o'rganish strategiyalarini aniqlash kerak. Shunday qilib, birlamchi va ikkilamchi kamchiliklar natijasida anomal rivojlanishning shakllanishi murakkab bo'lib, u bir tomonidan har bir bola uchun individual kamchiliklar, ikkinchidan esa shunga o'xshash kamchiliklar bilan tavsiflanadi. Bu o'ziga xoslik rivojlanish nogironligining har bir turiga taalluqlidir va bolalarning psixofizik xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus ta'limga sharoitlarini aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan odamlarning zamonaviy psixodiagnostikasi nazariy va uslubiy tizimlarga asoslanadi, ular quyidagilardan iborat. Rivojlanish buzilishining har bir turi o'ziga xos psixologik tuzilishga ega. Ushbu tuzilma birlamchi va ikkilamchi kamchiliklar o'rtasidagi munosabatlar bilan belgilanadi. Rivojlanish buzilishining har bir turi o'ziga xos kamchiliklarga ega. Rivojlanishdagi kamchiliklarni tashxislash umumiyligi va maxsus qonunlarga asoslanadi. Rivojlanishdagi nuqsonlarning diagnostikasi nafaqat ularning umumiyligi xususiyatlariga, balki bolaning ijobiy xususiyatlariga va salohiyatiga ham asoslanishi kerak. Rivojlanishda kamchiliklari bo'lgan odamlarni tashxislash natijalari psixologik-pedagogik diagnostika yo'li bilan belgilanadi, rivojlanish buzilishining turi bilan cheklanmaydi. U bolaning rivojlanishining individual psixofizik xususiyatlarini ishlab chiqishni, shuningdek, individual tuzatish ishlari dasturlari bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Psixologikpedagogik diagnostika kamchilikni ifodalash darajasini murakkablashtiradigan yetakchi nuqsonlarning rivojlanishini aniqlaydi va ular bo'yicha zarur tuzatish-pedagogik ishlarni amalgalashga qaratilgan. Agar test, bola muktabga borishdan oldin o'tkazilsa, bolaning qaysi muktabga maxsus tuzatish yoki umumiyligi ta'limga muktabiga tayyorligi aniqlanadi. Psixodiagnostika rivojlanishdagi nuqsonlarni va ularning o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlaydi. Boladagi bu

xususiyatlarni bilish mактабгача va мактаб та'lim dasturini, та'lim muassasasining turini, bolaning qobiliyatiga mos keladigan individual tibbiy psixologik-pedagogik dasturni ishlab chiqishga yordam beradi. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni samarali ta'lim, tarbiyalash va ijtimoiy moslashuvi ularning rivojlanish imkoniyatlari va xususiyatlarini to'g'ri baholashga bog'liq. Rivojlanishdagi kamchiliklarni har tomonlama psixologik-pedagogik diagnostika qilish orqali bu vazifaga erishish mumkin. Psixologik-pedagogik diagnostikada rivojlanish nuqsonlari bo'lgan bolalardagi kamchiliklarni aniqlash bolaning psixofizik xususiyatlarini hisobga olgan holda unga individual psixologik-pedagogik yondashuvni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablarida ham aqliy va jismoniy nuqsonlari bor bolalar bor. Ushbu kamchiliklarning ko'rinishi har xil bo'lishi mumkin. Katta guruhning harakati, hissiy yoki intellektual sohalaridagi kamchiliklarlar aniq ifodalanmagan: eshitish, ko'rish, fazoviy-kognitiv hislar, tayanch -harakat tizimi, fonemik bilish, hissiy-irodaviy buzilishlar, nutq rivojlanishidagi kamchiliklar, xattiharakatlari buzilgan bolalar, aqliy zaiflik, somatik kechikish. Maktabgacha yoshda aniq aqliy yoki jismoniy rivojlanish kamchiliklari aniqlanganda, engil kamchiliklar uzoq vaqt davomida sezilmaydi. Rivojlanishdagi nuqsonlarni tashxislash uch bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich skrining deb ataladi. Bu bosqichda bolaning rivojlanishidagi kechikishlar, aqliy va jismoniy nuqsonlar aniqlanadi, ammu ularning tabiatи va chuqurligini aniqlash qiyin. Ikkinchi bosqich - rivojlanish nuqsonlarining differential diagnostikasi. Ushbu bosqichning maqsadi rivojlanish nuqsonining turini aniqlashdir. Uning natijalariga ko'ra, bolaning imkoniyatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim muassasasining turi va dasturi, ularni tarbiyalashning optimal pedagogik yo'nalishi belgilanadi. Differensial diagnostikada psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning faoliyati yetakchi rol o'ynaydi. Uchinchi bosqich - fenomenologik. Uning maqsadi - bolaning individual xususiyatlarini, ya'ni fikrlash faoliyatining xususiyatlarini, hissiy va irodaviy ko'lamin, mehnat qobiliyatini, shaxsiy o'rganish va rivojlantirish uchun individual sharoitlarni tashkil qilish ko'lamin, mehnat

qobiliyatini, shaxsiy o'rganish va rivojlantirish uchun individual sharoitlarni tashkil qilish.

Kompensatsiya — nogironligi bo'lgan shaxsga yoki uning qonuniy vakiliga pul shaklida to'lanadigan, nogironligi bo'lgan shaxs tomonidan o'z mablag'lari hisobiga sotib olingan nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturida nazarda tutilgan reabilitatsiya texnik vositasi yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini qoplash. Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturi-organizmning izdan chiqqan yoki yo'qolgan funktsiyalarini, shuningdek nogironning mehnat faoliyati muayyan turlarini bajarishga bo'lgan qobiliyatlarini tiklashga, ularni kompensatsiya qilishga qaratilgan tibbiy, kasbiy va boshqa reabilitatsiya chora-tadbirlarni o'z ichiga oladigan nogiron uchun maqbul bo'lgan reabilitatsiya chora-tadbirlari kompleksi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni samarali ta'lim, tarbiyalash va ijtimoiy moslashuvi ularning rivojlanish imkoniyatlari va xususiyatlarini to'g'ri baholashga bog'liq. Rivojlanishdagi kamchiliklarni har tomonlama psixologik-pedagogik diagnostika qilish orqali bu vazifaga erishish mumkin. Psixologik-pedagogik diagnostikada rivojlanish nuqsonlari bo'lgan bolalardagi kamchiliklarni aniqlash bolaning psicho-fizik xususiyatlarini hisobga olgan holda unga individual psixologik-pedagogik yondashuvni ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit talim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim. Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-oqitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini taminlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus talim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T., 1998.
3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.
5. Abidova.N.Z.Maxsus pedagogika.
6. Ayupova M.Yu.Logopediya.
7. Mominova L.R, Abidova N.Z va boshqalar.Maxsus pedagogika.
8. Xamidova M.U Maxsus pedagogika.